

9. Elyor Abdullajonovich Rahmonov and Mukhsin Moydinovich Kholmatov. "THE PROCESS OF PROVIDING THE POPULATION WITH HOUSING IN THE SYSTEM OF SOCIAL PROTECTION IN UZBEKISTAN.(In the case of the Fergana Valley, 2016-2020)." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.10 (2022): 346-350.
10. Rahmonov E.A., Kholmatov M. M. THE SIGNIFICANCE OF YOUTH SUPPORT IN THE PROCESS OF SOCIAL PROTECTION OF THE POPULATION IN UZBEKISTAN //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – T. 11. – №. 10. – C. 337-342.

MARKAZIY OSIYO QO‘LYOZMA MANBALARI ASOSIDA IJTIMOIIY-SIYOSIY JARAYONLARNI RETROSPEKTIV TAHLIL QILISH METODIKASI

Ergasheva Maftunaxon Avazbekovna

Andijon davlat pedagogika instituti,

Tarix kafedrası dotsenti,

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tarixiga oid qo‘lyozma manbalarni tadqiq etishda retrospektiv tahlil metodining o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotda qo‘lyozma matnlari orqali o‘tmishdagi ijtimoiy-siyosiy voqelikni qayta tiklashning metodologik bosqichlari, manba tanqidi va interpretatsiya masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, qo‘lyozma, retrospektiv tahlil, metodika, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, tekstologiya, garmenevtika.

Annotation.

This article elucidates the role and significance of the retrospective analysis method in the study of manuscript sources related to the history of Central Asian civilization. The research analyzes the methodological stages of reconstructing

past socio-political realities through manuscript texts, as well as issues of source criticism and interpretation.

Key words: Central Asia, manuscript, retrospective analysis, methodology, socio-political processes, textual criticism, hermeneutics.

Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi jahon ilm-fani va madaniyatining o‘choqlaridan biri bo‘lib, o‘zidan biz uchun ulkan qadimiy qo‘lyozma ilmiy meros qoldirgandir. Bu qo‘lyozmalar shunchaki “o‘lik matnlar” emas, balki o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma‘naviy manzarasini aks ettirgan jonli hujjatlar hisoblanadi. Bugungi kunda tarixiy jarayonlarni xolis baholash uchun bizga nafaqat manbalardagi faktlar, balki ularni retrospektiv ya‘ni, bugundan o‘tmishga qarab tahlil qilish metodikasi zarurdir. Retrospektiv tahlil — bu bugungi kunda ma‘lum bo‘lgan natijalardan kelib chiqib, ularning kelib chiqish sabablari va ijtimoiy dinamikasini o‘tmishdagi manbalar orqali bosqichma-bosqich o‘rganish hisoblanadi.

Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tahlil qilishning o‘ziga xos jihatlari shundan iboratki, qo‘lyozma manbalarda siyosiy voqealar ko‘pincha sub‘ektiv tarzda, ya‘ni saroy tarixchisi yoki muallifning qarashlari prizmasida yozilgan. Shu sababli, rasmiy tarixiy asarlar, masalan, “Zafarnoma” yoki “Abdullanoma” asariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak asosan hukmdorlar irodasini aks ettirib yozilgan. Ammo qo‘lyozma hoshiyalarida kotiblar yoki keyingi egalari tomonidan qoldirilgan qisqa qaydlar davrning haqiqiy ijtimoiy kayfiyatini, iqtisodiy qiyinchiliklarni yoki noroziliklarni ochib berishi mumkin. Retrospektiv metod bu kichik detallarni katta siyosiy manzara bilan bog‘laydi. Ijtimoiy ierarxiya ya‘ni tushunish uchun qo‘lyozmadagi unvonlar va ijtimoiy atamalarning masalan: *sipoh*, *raiyyat*, *vaqf*, *daxldor* kabilarning qo‘llanish kontekstini o‘rganish lozim. Terminlarning ma‘no o‘zgarishi jamiyatdagi ijtimoiy transformatsiyadan dalolat beradi.

Matnlarni tahlil qilishda asosan quyidagi bosqichda ya‘ni, tekstologik matnning turli nusxalarini qiyoslash orqali asl matnni tiklash imkoni tug‘iladi. Kontekstual bosqich bu voqeani o‘sha davr ijtimoiy muhitiga joylash orqali sabab-oqibat bog‘liqligini topish imkoniyati, interpretatsiyada esa muallifning “yashirin xabar”ini aniqlash orqali siyosiy mafkurani tushinish mumkin. Retrospektiv bosqichda topilgan ma‘lumotlarni bugungi tarixiy bilimlar bilan sintez qilish tarixiy jarayonning yakuniy bahosini belgilab beradi. Markaziy Osiyo qo‘lyozmalarini o‘rganishda asosiy to‘siq — bu matnlarning haddan tashqari metaforik ya‘ni, badiiy tilda yozilganligidir. Filologik tahlilni tarixiy-

statistik tahlil bilan birlashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, asarda hukmdorning “adolatli” ekani aytilsa, retrospektiv tahlil buni o‘sha davrdagi soliq islohotlari yoki vaqf hujjatlaridagi raqamlar bilan solishtirib tekshiradi.

Retrospektiv tahlil metodikasi qo‘lyozmalarni shunchaki tarixiy hikoya emas, balki ijtimoiy laboratoriya sifatida o‘rganishga imkon beradi. Markaziy Osiyo qo‘lyozma manbalarini ushbu metod asosida tadqiq etish, mintaqa sivilizatsiyasining murakkab siyosiy mexanizmlarini va ijtimoiy tuzilmasini yangicha nigoh bilan baholashga xizmat qiladi. “Shajarayi turk” asari Abulg‘ozi Bahodirxonning ushbu asari nafaqat tarixiy xronika, balki muallifning o‘zi bevosita ishtirok etgan siyosiy jarayonlarning tahlilidir. *“Xiva taxtiga o‘tirganimda, o‘zbek ulusi ichra tartib buzilgan edi. Qatog‘on va qo‘ng‘irot orasida nizo bor edi. Men har bir qabilaning oqsoqolini chaqirib, ularga o‘z o‘rnini (mansabini) belgilab berdim...”*

Retrospektiv yondashuvda bugungi kundan qarab, biz XVII asr Xiva xonligidagi markaziy hokimiyatning zaiflashganini ko‘rishimiz mumkin. Abulg‘ozining ushbu jumalari orqali o‘sha davrdagi “urug‘chilik separatizmi” ya’ni, ajralib chiqishga intilish ijtimoiy-siyosiy jarayonini anglash mumkin bo‘ladi.

Interpretatsiya: muallif “tartib berdim” deganda, aslida ko‘chmanchi qabilalarni o‘troq davlat tizimiga bo‘ysundirish metodikasini qo‘llaganini tushunish mumkin. Asardagi xonlikning harbiy-siyosiy ahvolini tahlil qilish algoritmini ko‘ramiz.

“Turkman xalqi soliq to‘lashdan bo‘yin tovlab, qizilboshlilar (safaviylar) bilan ittifoq tuzdi. Bu esa davlatning xavfsizligiga raxna soldi.”

Algoritm asosida tahlilning tekstologik bosqichida: asarning turli nusxalarida “ittifoq” so‘zi o‘rniga “maxfiy kelishuv” (ittifoqi pinhon) iborasi ishlatilgan variantlarni qiyoslash darkor. Bu esa jarayonning naqadar murakkab va xavfli bo‘lganini ko‘rsatadi.

Kontekstual bosqichda: XVII asr o‘rtalarida Eron va Xiva o‘rtasidagi geosiyosiy raqobatni hisobga olish hamda turkmanlarning bu harakati shunchaki iqtisodiy isyon emas, balki mintaqaviy siyosiy o‘yinining bir qismi sifatida baholanadi.

Retrospektiv xulosada: Bugungi tarixiy tahlil nuqtayi nazaridan, bu voqea Xiva xonligida “etnik-siyosiy barqarorlik” muammosi doimo dolzarb bo‘lganini isbotlaydi. Qo‘lyozmalarda ba‘zan siyosiy mag‘lubiyatlar yoki inqirozlar ochiq yozilmaydi.

“Falon yili qish qattiq keldi, xalq orasida g‘alayon bo‘ldi, ammo Tangrining inoyati bilan fitna daf etildi.”

Ushbu parchani retrospektiv tahlil qilganda, tadqiqotchi faqat “ob-havo” haqida o‘ylamasligi kerak.

Demak, “Qish qattiq kelishi” — bu ko‘pincha iqtisodiy inqiroz (chorvaning qirilishi) belgisi hisoblanadi. Natijada “Fitna daf etildi” iborasi ortida xalq qo‘zg‘olonining harbiy kuch bilan bostirilganligi yashiringan. Metodika bizga matnning badiiy pardasi ortidagi qattiq siyosiy reallikni ochishga yordam beradi.

Retrospektiv yondashuv tarixiy qo‘lyozmalarni shunchaki statik matn sifatida emas, balki dinamik ijtimoiy jarayonlarning mahsuli sifatida baholash imkonini beradi. Bu metodika orqali o‘tmishdagi siyosiy inqirozlar va barqarorlik davrlarining “ichki mantiqi”ni bugungi kun nuqtai nazaridan tizimli o‘rganish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, qo‘lyozma manbalarni retrospektiv tahlil qilish metodikasi Markaziy Osiyo xalqlari davlatchilik tarixining murakkab qirralarini yoritishda an’anaviy tavsifiy metodlardan tubdan farq qiluvchi, chuqur tahliliy va qiyosiy xarakterga ega samarali vositadir. Ushbu metodikaning keng joriy etilishi mintaqa tarixshunosligini yangi sifat bosqichiga olib chiqish bilan birga, ijtimoiy-siyosiy fanlar metodologiyasini ham boyitishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **Abulg‘ozi Bahodirxon.** Shajarayi turk. – Toshkent: Cho‘lpon, 1992. – 188 b.
2. **Mirzo Ulug‘bek.** To‘rt ulus tarixi. (Fors tilidan tarjimonlar: B. Ahmedov, N. Shodmonov). – Toshkent: Cho‘lpon, 1994. – 352 b.
3. **Nizomulmulk.** Siyosatnoma (Siyar ul-muluk). – Toshkent: Adolat, 1997.
5. **Ahmedov B.** O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1991.
6. **O‘rinboyev A.** Abdurazzoq Samarqandiyning Hindiston safarnomasi. – Toshkent: Fan, 1960.
7. **Madraimov A., Fuzailova G.** Manbashunoslik. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008.
8. **Anorboyev A.** Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tarixshunosligi masalalari. – Toshkent: Fan, 2011.
9. **Munirov Q.** Qo‘lyozma manbalar tahlili. – Toshkent: Sharqshunoslik instituti, 2004.